Oʻzbekiston Respublikasi va uning mintaqalarida tashqi va ichki tahdidlar sharoitida iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholashni takomillashtirishning ilmiy-nazariy va mintaqaviy jihatlarini Respublikamiz olimlaridan Abulqosimov X.P., Rasulev T.S., Mamatov A.A., Qodirov A.M., Nazarov Sh.X., Abdusalyamov M.O., Axmedov T.M., Sadykov A.M., Ergashev R.X., Xamrayeva S.N., Oʻlmasov A., Vaxobov A.V., Joʻrayev T.T., Tursunov B.O. va boshqalarning mazkur sohaga dahldor ilmiy tadqiqot ishlarini ajratib koʻrsatish mumkin.

“Iqtisodiy xavfsizlik” tushunchasi dastlab davlat tashkilotlari darajasida tan olingan va institutsional jihatdan qayd etilgan, chunki uzoq vaqt davomida davlat suveren huquqlarning yagona egasi sifatida qabul qilingan edi. 1934-yilning iyun oyida AQSH Prezidenti F.D.Ruzvelt dunyoda birinchi marta “Iqtisodiy xavfsizlik qoʻmitasini tashkil etdi [2].

Mintaqani iqtisodiy xavfsizligini taʼminlashning institutsional nazariyasi asoschisi Dj.R.Kommons institutlarning tarixiy rivojlanishidagi ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni qoʻllab-quvvatlab, unga koʻra “evolyutsion” tushunchasi “institutsional” tushunchasi bilan mazmun va maʼnosi bir xil boʻladi deb taʼkidlaydi [3].

Mintaqani iqtisodiy xavfsizligini taʼminlashda iqtisodiy mexanizm konsepsiyasining asoschisi L.Gurvis mexanizm tushunchasini va “ragʻbatlantiruvchi muvofiqlik shartlarini” aniqlagan, markazlashmagan mexanizmlarning ahamiyatini koʻrsatib, mexanizm boʻyicha tadqiqotlarining asosiy yoʻnalishlarini aniqlagan [4].

Rus olimi V.K.Senchagov iqtisodiy xavfsizlikni “… ichki va tashqi jarayonlarni rivojlantirish uchun eng noqulay sharoitlarda milliy manfaatlarni kafolatli himoya qilish, umuman olganda mamlakatning barqaror ijtimoiy yoʻnaltirilgan rivojlanishi taʼminlangan iqtisodiyotning holati” deb taʼkidlab oʻtadi [5]. D.V.Tretyakov tomonidan integral koʻrsatkichni hisoblash va agrosanoat mintaqasining iqtisodiy xavfsizligini baholash usuli taklif etilgan [6].

Oʻzbekistonlik iqtisodchi olimlardan professor Abulqosimov X.P. “Mintaqaviy xavfsizlik mamlakat viloyatlari manfaatlariga ichki va tashqi tahdidlardan himoyalanganligini ifodalaydi. Mintaqaviy xavfsizlik oʻz ichiga tabiiy-texnogen, oziq-ovqat, umumiqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy va ijtimoiy xavfsizliklarni oladi” deb baho bergan [7]. Professor Tursunov B.O. “iqtisodiy xavfsizlik tushunchasini milliy iqtisodiyot mustaqilligi, uning barqarorligi, mustahkamligi, doimo yangilanishga va oʻz-oʻzidan takomillashib borishga qodirligini taʼminlovchi shart-sharoitlar va omillar yigʻindisi” deb baholagan [8].

Yuqorida keltirilgan tadqiqotlarga asoslangan holda, mintaqa iqtisodiyotini raqamlashtirish, unda ilmiy tadqiqot tajriba-konstruktorlik ishlarini yuritish, intellektual mulkdan, internetdan foydalanish holati bilan bogʻliq tahdidlarni tadqiq etish asosida mintaqaning iqtisodiy xavfsizlik darajasini baholashning konseptual uslubiy asoslarini asoslab berish muhim ahamiyat kasb etadi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada dialektik, tizimli, integral metodologiya va sinergetik yondashuvlar, iqtisodiy, mantiqiy, ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, iqtisodiy jarayonlar va tizimlarni modellashtirish, induksiya va deduksiya, qiyoslash, umumlashtirish, guruhlash va jadval usullaridan foydalaniladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi darajasini va uning iqtisodiy xavfsizligiga tahdid soladigan chegara qiymatlarini aniqlash uchun ilmiy asoslangan mezon va koʻrsatkichlar roʻyxati zarur va undan chetga chiqish iqtisodiy xavfsizlikka signal boʻlib xizmat qiladi. Bugungi kun ilmiy-tadqiqot ishlarida barcha mintaqalar uchun mos miqdoriy va sifat koʻrsatkichlari toʻplamiga ega boʻlgan iqtisodiy xavfsizlik koʻrsatkichlarining universal tizimi mavjud emas. Mintaqa darajasida iqtisodiy xavfsizlik koʻrsatkichlarining asosiy roʻyxatini umumlashtirish katta hajmdagi axborot va monitoringni tahlil qilishni talab qiladi.

Iqtisodiy xavfsizlikni tahlil qilish va baholashning mavjud usullari, ularning oʻziga xos kamchiliklari va afzalliklarini tadqiq etish asosida mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi holatini baholashning integral usuli deb nomlanadi. Integral metodologiya qoʻllash va amalga oshirishning quyidagi bosqichlarini oʻz ichiga oladi:

1. Soha faoliyatining bir qancha strategik muhim yoʻnalishlarini aniqlash.
2. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi holati koʻrsatkichlarini ushbu hududning rivojlanishi va faoliyatining oʻziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda aniqlash va ularni yoʻnalishlar roʻyxatiga muvofiq guruhlash.

3. Har bir tanlangan yo‘nalish uchun vazn koeffitsiyentini aniqlash.
4. Integral ko‘rsatkichlar uchun mezon chegaralarini shakllantirish.
5. Muhimlik koeffitsiyentini har bir aniq ko‘rsatkich uchun hisoblash.
6. Har bir strategik yo‘nalish uchun integral koeffitsiyentni hisoblash.
7. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligining yakuniy qiymatini hisoblash.
8. Natijalarni baholash va sharhlash.

So‘nggi yillarda iqtisodiy xavfsizlikni tahlil qilish va baholash usuli bo‘yicha ko‘pgina olimlar shug‘ullanishgan. Shulardan rossiyalik iqtisodchi D.V.Tretyakov [9] tomonidan taklif etilgan integral ko‘rsatkichni hisoblash va agrosanoat mintaqasining iqtisodiy xavfsizligini baholash usuli e’tiborga loyiq. Uning asosida agrosanoat yo‘nalishini hisobga olmaganda, ma’lum bir hudud uchun ko‘rsatkichlar ro‘yxati aniqlangan. Ko‘rsatkichlar hududiy faoliyatning 5 ta yo‘nalishi bo‘yicha guruhlangan. Har bir yo‘nalish umuman jamiyat va xususan, muayyan hudud uchun strategik ahamiyatga ega.

Ushbu metodologiyadan foydalangan holda Qashqadaryo viloyati mintaqasi misolida keyingi hisob-kitoblar uchun biz quyidagi ko‘rsatkichlar guruhlarini aniqladik: mintaqaning iqtisodiy barqarorligi; mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish darajasi; aholining ijtimoiy ta’minoti; demografik barqarorlik.

Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xavfsizligi darajasini baholash uchun shakllangan ko‘rsatkichlar tizimi va ularning chegaraviy qiymatlari aniqlandi. Har bir strategik yo‘nalish bo‘yicha vazn koeffitsiyentlarini belgilashda mintaqaning hozirgi holati, uning geografik va resurs xususiyatlari, rivojlanish xususiyatlarini hisobga olish kerak. Qashqadaryo viloyati misolida, ekspert baholash orqali og‘irlik omillari aniqlandi:

1. Mintaqaning iqtisodiy barqarorligi – 0,2
2. Mahsulot ishlab chiqarish va sotish darajasi – 0,15
3. Aholining ijtimoiy ta’minoti – 0,25
4. Demografik barqarorlik – 0,25

Eng katta vazn koeffitsiyentlari har qanday mintaqa va uning qismlari faoliyatidagi asosiy funksiya ijtimoiy funksiya ekanligini hisobga olib, aholining ijtimoiy ta’minoti va resurs salohiyatidan foydalanish samaradorligiga mos kelishi resurs komponenti tanlangan mintaqaning xususiyatlariga bog‘liq. Mintaqaning iqtisodiy barqarorligiga pastroq og‘irlik koeffitsiyenti berildi, chunki ushbu sohaga kiritilgan ko‘rsatkichlar ro‘yxati ko‘plab omillarga, shu jumladan milliy omillarga bog‘liq bo‘lgan umumlashtirilgan jarayonlarni aks ettiradi.

Mahsulot ishlab chiqarish va sotishni tavsiflovchi ko‘rsatkichlar guruhi ham eng kichik vazn koeffitsiyentiga ega, bu ko‘rsatkichlar to‘plamiga bog‘liq. Shuni ta’kidlash kerakki, vazn koeffitsiyentlari bir-biridan kichik og‘ishlardan iborat bo‘lib, mos ravishda har bir strategik yo‘nalish berilgan mintaqa uchun bevosita ahamiyatga ega.

Taklif etilgan metodologiya doirasida hisob-kitoblarni amalga oshirish uchun ko‘rsatkichlarni normallashtirish kerak, chunki ular turli o‘lchamlarga ega, bu esa ularni qo‘shimcha o‘zgartirishlarsiz to‘g‘ridan-to‘g‘ri foydalanishga imkon bermaydi. Normallashtirish, ya’ni ma’lum bir ko‘rsatkichning ahamiyatlilik koeffitsiyentini topish, agar tegishli ko‘rsatkichning qiymatini oshirish maqsadga muvofiq bo‘lsa, ko‘rsatkichning haqiqiy qiymatining chegara qiymatiga nisbati sifatida aniqlanadi:

$$K_{i1} = \frac{F_i}{I_i}$$

Agar chegara qiymatiga nisbatan indikator qiymatining pasayishi kerak bo‘lsa, quyidagi formula qo‘llaniladi:

$$K_{i2} = \frac{I_i}{F_i}$$

Bu yerda, -ko‘rsatkichning haqiqiy qiymati;
-indikatorning chegara qiymati.

Natijalarni solishtirish uchun normallashtirish usuli ham ko‘rib chiqildi. Bu usulda ikki xil funksiyalar ajratiladi. Haqiqiy ko‘rsatkichni chegara qiymatidan oshirish kerak bo‘lsa, quyidagi funksiya qo‘llaniladi:

$$y = \begin{cases} 2^{\frac{(1-\frac{a}{x})}{\ln\frac{10}{3}}}, & \text{агар } \frac{x}{a} < 1 \\ 2^{-\log_{\frac{10}{3}}\frac{a}{x}}, & \text{агар } \frac{x}{a} \geq 1 \end{cases}$$

bu yerda x - ko'rzatkichning haqiqiy qiymati;

a - indikatorning chegara qiymati;

y - indikatorning normallashtirilgan qiymati.

Agar indikatorning haqiqiy qiymati chegara qiymatidan oshmasligi, ya'ni pasayish tendensiyasi kuzatilganda quyidagi funksiya qo'llaniladi:

$$y = \begin{cases} 2^{\frac{(1-\frac{a}{x})}{\ln\frac{10}{3}}}, & \text{агар } \frac{x}{a} > 1 \\ 2^{-\log_{\frac{10}{3}}\frac{a}{x}}, & \text{агар } \frac{x}{a} \leq 1 \end{cases}$$

Yuqoridagi usul bilan olingan ma'lumotlarni radar diagrammasi shaklida qaralganda, ko'rsatkichlarning chegara qiymatlari y = 1 qatorida ko'rsatiladi, indikatorlarning kiruvchi qiymatlari y = 1 chizig'i bilan chegaralangan sektor ichidaligi yaqqol ko'rinadi. Radar diagrammasida keltirilgan sektorlar beshta "xavf zonasi"ga bo'lingan:

1. Halokatli xavf y = 0,25 chiziq bilan chegaralangan sektor. Ushbu zonadagi indikatorning qiymati mutlaqo qabul qilinishi mumkin emas deb hisoblanadi va oqibatlarni minimallashtirish hamda sabablarni lokalizatsiya qilish uchun darhol choralar ko'rish talab etiladi. Agar hisoblash uchun o'sishga moyil bo'lgan ko'rsatkichlar funksiyasidan foydalanilgan bo'lsa, unda ushbu sektorda bo'lish haqiqiy qiymat kerakli qiymatdan 10 baravar kam ekanligini ko'rsatadi. Teskari funksiyani qo'llashda haqiqiy qiymat chegaradan 10 baravar yuqori bo'ladi;
2. Halokat arafasidagi xavf y = 0,25 va y = 0,5 chiziqlari bilan chegaralangan sektordir. Ushbu sektorda bo'lish inqirozli vaziyat mavjudligidan dalolat beradi. Agar hisoblash uchun o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan ko'rsatkichlar funksiyasidan foydalanilgan bo'lsa, unda ushbu sektorda bo'lish haqiqiy qiymat kerakli qiymatdan 3 dan 10 baravargacha kam ekanligini ko'rsatadi.
3. Ekstremal xavf y = 0,5 va y = 0,75 chiziqlari bilan chegaralangan sektor. Belgilangan sektorda indikatorning mavjudligi vaziyatni barqarorlashtirish uchun boshqaruv qarorlari yetarli darajada tezkor qabul qilinmaganligini ko'rsatadi, shuningdek, o'z vaqtida monitoring va ma'lumotlarni yangilash zarurligini ta'kidlaydi. Agar hisoblash uchun o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan ko'rsatkichlar funksiyasi ishlatilgan bo'lsa, unda ushbu sektorda bo'lish haqiqiy qiymat istalgan qiymatdan 3 dan 1,6 baravar kam ekanligini ko'rsatadi.
4. Normal xavf y = 0,75 va y = 0,99 chiziqlari bilan chegaralangan sektor. Ushbu sektorda bo'lish maqbul deb hisoblanadi. Bu holat eng keng tarqalgan va hududning har qanday faoliyati uning iqtisodiy xavfsizligi darajasiga sezilarli ta'sir ko'rsatmasligidan dalolat beradi. Agar hisoblash uchun o'sish ko'rsatkichlari funksiyasidan foydalanilgan bo'lsa, u holda ushbu sektorda bo'lish haqiqiy qiymatning 1,6 baravar kamligini ko'rsatadi;
5. Barqarorlik y = 1 chiziqdan tashqarida joylashgan sektordir. Diagrammadagi bunday joylashuv barqaror rivojlanishni, yagona hududga nisbatan o'rganilayotgan hududda olib borilayotgan boshqaruv siyosatining yetarli darajada barqarorligini va samaradorligini ko'rsatadi. y = 1 chizig'i ko'rsatkichning haqiqiy qiymatining chegara qiymati bilan mos kelishini ko'rsatadi. Agar ko'rsatkich uchun o'sish talab qilinsa va hisobda tegishli funksiyadan foydalanilgan bo'lsa, u holda y = 1,25 chiziq chegara qiymatidan 1,6 marta, y = 1,5 chiziq esa 3,3 marta oshib ketganligini bildiradi.

Normallashtirilgan ma'lumotlarni "burilishlar" usulidan foydalangan holda bitta integral ko'rsatkichga birlashtirganda, oddiy o'rtacha arifmetik formuladan foydalanish taklif etiladi, uni qo'llashda barcha asosiy ko'rsatkichlar bir-birining o'rnini bosishi nazarda tutiladi. Normallashtirilgan ko'rsatkichlar integral baholashda normallashtirilgan ko'rsatkich qiymatining yana bir ijobiy o'zgarishi bilan to'liq qoplanadi. O'rtacha arifmetikdan foydalanish matematik nuqtayi nazardan to'g'ri hisoblanadi, chunki funksional bog'liqlikda bo'lmagan va bir xil og'irlikdagi ko'rsatkichlar tizimi ko'rib chiqiladi va bu ko'rsatkichlarni tanlash sharti bilan belgilanadi. Har bir ko'rsatkichlar guruhi uchun ko'rsatkichning o'rtacha qiymati hisoblanadi:

$$K_{г} = \frac{\sum K_i}{n}$$

bu yerda: n - mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini tahlil qilishning tanlangan yo'nalishidagi ko'rsatkichlarning umumiy soni.

Bundan tashqari, yuqorida ko‘rsatilgan amalga oshirish rejasi va muayyan tortish omillari asosida mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi holatining yakuniy integral ko‘rsatkichi aniqlanadi:

$$\text{ИХ}_{\text{ҳ}} = 0{,}2\text{К}_{\text{ги}} + 0{,}15\text{К}_{\text{гч}} + 0{,}25\text{К}_{\text{пт}} + 0{,}25\text{К}_{\text{гд}}$$

bu yerda $0<\text{ИХ}_{\text{ҳ}}$

$\text{К}_{\text{ги}}$- mintaqaning guruh iqtisodiy barqarorligi uchun o‘rtacha qiymat;

$\text{К}_{\text{гч}}$- mahsulot ishlab chiqarish va sotishning guruh darajasi bo‘yicha o‘rtacha qiymat;

$\text{К}_{\text{пт}}$- aholining ijtimoiy ta’minoti guruhi uchun o‘rtacha qiymat;

$\text{К}_{\text{гд}}$- gd guruh bo‘yicha o‘rtacha demografik barqarorlik;

Integral ko‘rsatkich uchun mezon chegaralari tizimi 2.5-jadvalda keltirilgan besh daraja bilan belgilanadi. Kritik daraja juda past va vaziyatni barqarorlashtirish uchun boshqaruv organlarining zudlik bilan aralashuvini talab qiladi. Inqiroz darajasi ham o‘rganilayotgan barcha sohalarda pasayishdan dalolat beradi. Potensial va rivojlanish darajasi yuqori bo‘lgan hududlar uchun past darajaga yo‘l qo‘yib bo‘lmaydi, depressiyaga uchragan hududlar uchun esa qisqa vaqt ichida yaxshilanish tendensiyasi bilan qoniqarli ko‘rinishga o‘tkaziladi. O‘rta va yuqori darajalar eng maqbul bo‘lib, hududni boshqarishning samarali faoliyatini ko‘rsatadi (1-jadval).

**1-jadval. Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligini baholash darajalari**

| Mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi darajasi | Integral indikatorning mezon chegaralari |
|---|---|
| 1. Yuqori darajada | 1,05 va undan yuqori |
| 2. Normal darajada | 1,00–1,04 |
| 3. Inqiroz oldi darajada | 0,70–0,99 |
| 4. Inqiroz darajasida | 0,5–0,69 |
| 5. Halokatli darajada | 0,49 va undan past |

Taklif etilayotgan usul mintaqaning iqtisodiy xavfsizligi holatining integral ko‘rsatkichini hisoblashdan iborat bo‘lib, u vazn koeffitsiyentlarini hisobga olgan holda to‘rtta strategik sohada xususiy ko‘rsatkichlarning o‘rtacha normallashtirilgan qiymatlaridan iborat bo‘ladi.

Ushbu tadqiqotning maqsad va vazifalarini amalga oshirgan holda, biz taklif qilingan integral metodologiya asosida Qashqadaryo viloyati tumanlarining iqtisodiy xavfsizligi darajasini baholadik. Eng ishonchli ma’lumotni olish uchun biz o‘rganilayotgan mintaqadagi nisbiy va mutlaq ko‘rsatkichlarni hisobga olamiz. Ko‘rsatkichlarning o‘ziga xos qiymatlarini mumkin bo‘lgan sabab-oqibat munosabatlarini tahlil qiladigan bo‘lsak, har bir ko‘rsatkich bo‘yicha 2021-yilgi ma’lumotlar olindi.

Birinchi guruh ko‘rsatkichlari – mintaqaning iqtisodiy barqarorligi. Guruh mintaqadagi umumiy iqtisodiy vaziyatni aks ettiruvchi to‘rtta ko‘rsatkich bilan ifodalandi. Taqdim etilgan butun davr uchun aholi jon boshiga YAHMning qiymati Qarshi shahri, G‘uzor tumani hamda Nishon tumanlarida yuqori, Mirishkor, Kitob, Yakkabog‘ hamda Muborak tumanlarida ko‘rsatkichlar nisbatan past.

Asosiy kapitalga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi YAHMga nisbatan beqaror bo‘lib, pasayish tendensiyasi kuzatilmoqda, bu mintaqadagi umumiy moliyaviy vaziyat bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Bundan o‘z navbatida investitsiyalarning kamayishi mintaqada chuqurroq moliyaviy muammo, ya’ni o‘z-o‘zini moliyalashning yo‘qligi degan xulosaga kelish mumkin. Tuman tashkilotlarining umumiy sonida zarar ko‘rayotgan tashkilotlarning salmoqli qismi tadbirkorlik faoliyatidagi og‘ir vaziyatdan dalolat beradi, bu esa o‘z navbatida soliq tushumlarining pasayishiga olib kelganligini ko‘rsatadi.

Integral ko‘rsatkichni hisoblashning eng samarali usulini tanlash uchun birinchi guruh ko‘rsatkichlari – mintaqaning iqtisodiy barqarorligi misolida biz parallel ravishda ikkita normallashtirish usulini qo‘lladik.

Ko‘rsatkich qiymatining oshishi yoki kamayishi kerakligiga qarab, mintaqa uchun ma’lumotlar mutanosiblikka erishish va mutlaq qiymatlardan uzoqlashish uchun chegara qiymatlari bilan bog‘lanadi (1-rasm).




**1-rasm. Qashqadaryo viloyatida oʻrtacha iqtisodiy barqarorlik koʻrsatkichlari**

Koʻrsatkichlarning ikkinchi guruhi – mahsulot ishlab chiqarish va sotish darajasi. Bu hududda ishlab chiqarishning rivojlanish darajasini tavsiflovchi oltita koʻrsatkich bilan ifodalanadi, chunki ushbu sohaning yillik dinamikasini aks ettiruvchi sanoat ishlab chiqarish indeksi barqaror ijobiy tendensiyaga ega boʻlib, bu hududning mumkin boʻlgan barqarorligi uchun asoslardan biridir.

Aholi jon boshiga toʻgʻri keladigan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi boʻyicha past koʻrsatkich Muborak, Mirishkor, Dehqonobod hamda Shahrisabz tumanlariga toʻgʻri keladi. Keyingi vaqtlarda tumanlarda chorvachilik va oʻsimlikchilik boʻyicha samarali ishlar olib borilishi natijasida sohada ijobiy dinamika taʼminlanmoqda. Shuningdek, keyingi yillarda mahalliy hokimliklar tomonidan qishloqni qoʻllab-quvvatlash siyosati amalga oshirilib, uning doirasida fermer xoʻjaliklariga mahsulot ishlab chiqarishdan to toʻgʻridan-toʻgʻri bozorga chiqarishgacha koʻmaklashilmoqda.

Ishlab chiqarish tarmoqlari indeksining qiymati viloyat boʻyicha oʻrtacha koʻrsatkichga nisbatan qoniqarli. Aholi jon boshiga pullik xizmatlar hajmi davlat hokimiyati va mahalliy hokimiyat organlari tomonidan koʻrsatiladigan xizmatlar doirasini ifodalaydi. Qiymatlar Mirishkor tumanidan tashqari barcha tumanlar koʻrsatkichlari barqaror, bunda qonunchilik islohotlari tufayli biroz oshgani bundan mustasno.

Qashqadaryo viloyati tumanlarida innovatsion sohani yanada rivojlantirish uchun sezilarli imkoniyatlar mavjud. Mavjud vaziyatni tahlil qilar ekanmiz, viloyat markazidan uzoqda joylashgan tumanlarda, togʻ-kon sanoati va qishloq xoʻjaligiga ixtisoslashgan hududlarda innovatsion yoʻnalishlarni bosqichma-bosqich rivojlantirish uchun oʻziga xos sharoitlar shakllanmoqda. Bundan tashqari, moliyaviy resurslarni kengroq jalb etish orqali koʻrsatkichlarni ayrim tumanlarda yanada yaxshilash imkoniyati mavjud.




**2-rasm. Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha mahsulot ishlab chiqarish va sotish darajasi ko‘rsatkichlari**

Ko‘rsatkichlarning uchinchi guruhi – aholining ijtimoiy ta’minlanishi. Ushbu yo‘nalish barcha tuman ma’muriy birligi uchun asosiy hisoblanadi. Ushbu guruh ko‘rsatkichlari hududdagi aholining turmush darajasini tavsiflaydi. Aholi jon boshiga o‘rtacha daromad Mirishkor, Qamashi, Yakkabog‘ va Koson tumanlarida pastligini ko‘rish mumkin.

Ishsizlik darajasi mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan oshmaydi, ayrim tumanlarda esa qo‘shimcha bandlik imkoniyatlarini kengaytirish zarurati mavjud. Bundan tashqari, statistik ma’lumotlar ishsizlik darajasini yanada takomillashtirish va vaziyatni chuqurroq aks ettirish imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Aholining ixtiyorida bo‘lgan real daromadlari indeksi nisbatan past bo‘lib, ya’ni 100% dan past qiymat aholining iste’mol va jamg‘arish imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha choralar ko‘rish zarurligini anglatadi.

Aholi jon boshiga o‘rtacha pul daromadlari hajmi, agar tahlil o‘sib borayotgan inflyatsiya hisobga olinsa, deyarli o‘zgarishsiz qolmoqda. Aholiga to‘g‘ri keladigan turar-joy binolarining umumiy maydoni Respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan yuqori ekanligini ko‘rish mumkin (3-rasm).




**3-rasm. Qashqadaryo viloyatida o‘rtacha aholini ijtimoiy himoya qilish ko‘rsatkichlari**

Aholining ijtimoiy himoyalanish darajasi bugungi kunda qoniqarli deb baholanmoqda. Biroq, mutlaq qiymatlarni tahlil qilish shuni ko‘rsatadiki, ba’zi ko‘rsatkichlarning qabul qilinishi mumkin bo‘lmagan qiymatlari boshqalar tomonidan qoplanadi. Ko‘rsatkichlarning to‘rtinchi guruhi – bu inson resurslari bilan ta’minlanishning

eng muhim sohasini tavsiflovchi demografik barqarorlik. Tumanlarda oʻrtacha umr koʻrish soʻnggi yillarda doimiy ravishda biroz oʻsish kuzatildi. Ta'kidlash joizki, 2017-yil Respublika Prezidenti tashabbusi bilan Respublikada chaqaloqlar oʻlimiga qarshi faol kurash olib borilmoqda, mazkur faoliyat doirasida barcha hudud markazlarida zamonaviy perinatal markaz barpo etilmoqda. Shuningdek, sogʻliqni saqlash tizimini isloh qilish va tibbiy xizmat sifatini oshirishga alohida e'tibor qaratilgan (4-rasm).




**4-rasm. Qashqadaryo viloyatida oʻrtacha demografik barqarorlik koʻrsatkichlari**

Qashqadaryo viloyatining tumanlarida iqtisodiy xavfsizlik darajasining integral koʻrsatkichini hisoblab chiqildi hamda iqtisodiy xavfsizlik darajasining integral koʻrsatkichining qiymati tumanlar boʻyicha aniqlandi. Baholash natijalariga koʻra, Qashqadaryo viloyati tumanlaridan Qarshi tumani yuqori, Koson tumani oʻrta, Mirishkor tumani kritik va qolgan tumanlar iqtisodiy xavfsizligi darajasi inqiroz oldi holat sifatida belgilandi. Mintaqadagi iqtisodiy xavfsizlik boʻyicha eng obyektiv xulosalar uchun biz integral metodologiyani hisoblash jarayonida ta'sir qilmagan bir nechta sohalarni qoʻshimcha ravishda koʻrib chiqishni taklif qilamiz. Integral koʻrsatkichning olingan qiymati koʻrsatkichlarning butun majmuasini hisobga oladi va vaziyatni jamlangan holda koʻrsatadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Integral metodologiyadan foydalangan holda mintaqaning iqtisodiy barqarorligi, mahsulotlarni ishlab chiqarish va sotish darajasi, aholining ijtimoiy ta'minoti, demografik barqarorlikning ilmiy asoslangan mezon koʻrsatkichlari va ularning chegaraviy qiymatlari boʻyicha baholash uslubiyati ishlab chiqildi.

Baholash natijalariga koʻra, mintaqada mahsulotni ishlab chiqarish va sotish koʻrsatkichlarining normallashtirilgan qiymatlari yanada rivojlantirish imkoniyatlari mavjudligini koʻrsatmoqda. Mavjud vaziyatni yaxshilash uchun mintaqada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qoʻllab-quvvatlash dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Mintaqa sanoatida innovatsion faoliyatni yanada faollashtirish imkoniyatlari mavjud. Bu mintaqada uzoq muddatli loyihalarga sarmoya kiritish bilan birga, tumanlarda faoliyat koʻrsatayotgan ishlab chiqarish korxonalarini iqtisodiy mustahkamlash uchun moliyaviy mablagʻlar va boshqa resurslarni jalb etish maqsadga muvofiq.

Aholini ijtimoiy himoya qilishning oʻrtacha qiymati boʻyicha batafsil tahlil mintaqada ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish zarurligini koʻrsatadi. Shu bois viloyat hokimiyati tomonidan mintaqada aholini ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish boʻyicha samarali chora-tadbirlar ishlab chiqish talab etiladi.

Tumanlarda iqtisodiy xavfsizlik darajasini saqlab qolish va barqarorlashtirish uchun har bir tumanning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini belgilash va har bir alohida tumanni uning ahamiyati va mavjud salohiyatidan kelib chiqqan holda strategik rivojlanish dasturini ishlab chiqish zarur.

Ilmiy asoslangan mezon ko‘rsatkichlari va ularning chegaraviy qiymatlari bo‘yicha baholashga ko‘ra, mintaqaning Qarshi tumani yuqori, Koson tumani normal, Mirishkor tumani alohida e’tibor talab qiluvchi hamda qolgan tumanlar rivojlantirish imkoniyatlariga ega hududlar sifatida aniqlandi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Т.// Халқ сўзи, 2017 йил 23 декабрь.

2. Берсенев, В.Л. Ведущие центры исследования проблем экономической безопасности в России / В.Л. Берсенев. // Экономика региона. - 2019. - Т. 15, вып. 1. - С. 29-42.

3. Квашницкий, В. Истоки эволюционной экономики / В. Квашницкий // Истоки: из опыта изучения экономики как структуры и процесса / [редакционная коллегия: Я.И. Кузьминов и др.]. - 2-е изд. - Москва: Изд. дом ВШЭ, 2007. – С.95.

4. Hurwicz, L. On informationally decentralized systems / L. Hurwicz. - Текст: непосредственный // Decision and Organization / R. Radner, C.B. McGuire (eds.). - Amsterdam and London: North-Holland, 1972. - P. 297-336.

5. Сенчагов, В.К. Экономическая безопасность России: Общий курс: учебник / под ред. В.К. Сенчагова. - 3-е изд., перераб. и доп. - Москва: БИНОМ. Лаборатория знаний, 2016. – С.28.

6. ТретьяковД.В.Квопросуобинтегральнойоценкиэкономическойбезопастностиагропромышленного региона/ Д.В.Третьяков// Социально-экономические явления и процессы.-№11(033). - 2011.-с.213-218

7. Абулқосимов Х.П.,Абулқосимов М.Х. Иқтисодий хавфсизлик:Назария ва амалиёт Дарслик.Т. 2019 й.-Б.455.

8. Турсунов Б.О. Иқтисодий хавфсизлик. Ўқув қўлланма.-Т.: “Инновацион ривожланиш нашриёт-матба уйи, 2021 .-Б.15.

9. ТретьяковД.В.Квопросуобинтегральнойоценкиэкономическойбезопастностиагропромышленного региона/ Д.В.Третьяков// Социально-экономические явления и процессы.-№112011-с.119.

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Oloviddin Sobir o‘g‘li

**2026. № 4 (2)**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz